



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



OTA-ONA HAYOTIMIZNING TAYANCHI

Mamatova Umida Sapaboy qizi

Guliston davlat pedagogika institute 1-bosqich talabasi

Ota-ona — bu inson hayotining eng muqaddas va bebaho ne'matidir. Ota-onalar farzandlarini mehr va sevgi ila tarbiyalashadi. Ular farzandlariga nafaqat tarbiya, balki ilm yo'lida ham juda katta yordam qilishadi. Ular hayotlari davomida o'qimagan bo'lsa ham farzandlarini buyuk inson bo'lib yetishishiga ko'maklashadi. Ota-onalar farzandi tug'ilishi bilan kindik qoni to'kilgan millatning milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini o'rgatishadi. Ota-ona farzandining rivojlanishi yo'lidagi barcha qiyinchiliklarini zinama-zina birga bosib o'tadi. Oilada farzandga diniy va dunyoviy ilmlar, adabiyot, san'at va boshqa muhim qadriyatlar o'rgatiladi. Oilaning ahilligi ota-ona tuzgan tashkilotga bog'liq bo'ladi. Farzand uchun ota-onaning rozi bo'lishi eng katta baxtdir. Kimki ota-onasiga mehr bilan qarasa, u insoniylikning eng oliy cho'qqisiga ko'tariladi. Zero, ota-onaning bir og'iz duosi minglab orzularni amalga oshirishi mumkin. Dunyoda har narsaning o'rni to'ldiriladi, faqat ota-onaning o'rni to'ldirilmaydi. Yurtimizda oila ma'naviyati va madaniyati asrlar davomida shakllanib kelmoqda. Vatanga, ota-onaga sodiqlik ularga bo'lgan muhabbat o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Buning zaminida ta'lim maskanlaridagi va oiladagi tarbiya muhim o'rin tutadi. Farzand tarbiyasidagi eng muhim omillardan biri bu – ota-ona tarbiyasi va ularning ko'rsatayotgan mehr-muhabbatlaridir. Hayotimizda ota-ona eng ulug' zotlar hisoblanadi. Chunki ular farzandlari uchun hayotini bag'ishlaydilar. Ota-ona shunday insonki, hattoki farzandi turmush qurib bo'lganidan keyin ham farzandi haqida qayg'urishdan to'xtamaydi. Ota-ona farzandi dunyoga kelishi bilan uni oq yuvib, oq tarab o'zida yo'q narsalarni hadya etadi. Umuman olganda, farzandini hayotda kerakli barcha narsalar bilan ta'minlashga qo'lidan kelgunicha harakat qiladi. Ota-ona farzandining kamolini ko'rish uchun kechalari uyqudan qolsa ham uning yetuk inson bo'lishi uchun tinimisiz harakat qiladi. Bugungi yoshlarimiz hech qanday qiyinchiliklarsiz tahsil olmoqda buning sababchisi esa ota-onalaridir. To'g'ri bu ishlar ota-onaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Afsuski, ba'zi ota-onalar asosiy vazifalari faqat shulardan iborat deb o'ylashadi, lekin aksincha bulardan ham muhimrog'i bor bu farzandning axloqiy tarbiyasidir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bunday marhamat qiladilar: "Ota-ona farzandiga yaxshi xulqdan ham ortiqroq narsa bera olmaydi". Demak, ota-ona farzandiga beradigan eng yaxshi narsasi qimmatbaho kiyim, yaxshi taom yoki ajoyib sovg'a emas, balki go'zal xulq va yaxshi tarbiyasi ekan. Chunki, kiyim, taom yoki hadya farzandga ma'lum vaqt foyda berishi mumkin, lekin vaqt o'tishi bilan bularning hech qanday foydasi tegmaydi. Go'zal xulq, yaxshi tarbiya esa farzandga umri davomida foyda beradi. Nafaqat umri davomida balki oxiratda ham naf keltiradi. Tan olib aytish lozimki, ba'zi ota-onalar ertalabdan kechgacha ishda bo'lib farzandlarining kelajagini o'ylamasdan ular uchun vaqt ajratmayapti. Natijada yosh avlod tarbiyani ijtimoiy tarmoqlardan, televizor hamda ko'chadagi insonlardan olmoqda. Shunday vaziyatda voyaga





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



yetayotgan farzand odobli, ilm-ma’rifatli, kelajakda yurtiga xizmat qiladigan va ota-onasiga rahmat olib keladigan farzand bo‘lib ulg‘ayishiga kim kafolat bera oladi? Shu sababli, ota-onalar, farzandingiz siz olib bergan kompyuterlardan va telefonlardan qay yo‘sinda foydalanishmoqda. Yosh avlodimiz kelajakda yurtimizning rivojlanishi yo‘lida muhim o‘rin tutishi kerak. Ularning qilayotgan sa’y harakatlari besamar ketmasligi lozimdir. Bunday vaziyatlardan ota-ona farzandlarini nazoratsiz qoldirishi mumkin emas. Chunki farzandlar niholga o‘xshaydi uni qayerga yo‘naltirsangiz o‘sha tomonga qarab rivojlanadi. “Ota-ona – farzand uchun eng buyuk tarbiyachidir. Ularning ibрати kitoblardan ko‘ra kuchliroq ta’sir qiladi”. Shu sababli, ota-onalar farzandiga doim tarbiya yo‘lida ham, ilm yo‘lida ham yetuk mutaxassis sifatida to‘g‘ri yo‘naltirishi darkor. Hadisi sharifda “Farzanding yo jannating yoki do‘zaxingdir”, deb aytilgan. Ota-ona farzandini yaxshi xulqli, odobli va imon-e’tiqodli qilib tarbiyalasa, oxirat kunida o‘zlari bilan ota-onasini jannatga yetaklaydi. Inson qancha ulg‘aymasin, ota-onasining oldida u baribir kichkina farzand bo‘lib qoladi. Ularning bir og‘iz duosi, bir tabassumi farzandning yuragiga tinchlik baxsh etadi. Ota-onaning roziligi — bu Yaratganning roziligi, ularning g‘azabi esa eng og‘ir sinovdir. Ular bizga shunday sharoitlar ta’lim tarbiya berishyaptimi biz ham ularning yuzini yorug‘ qilib va boshlarini mag‘rur ko‘taradigan farzand bo‘lib voyaga yetishimiz kerak. Ota-ona haqqi ulug‘dir. Axloqiy kitoblarda bu to‘g‘risida juda ko‘p hikmatli so‘zlar keltirilgan. Muqaddas kitobimiz Qur’oni Karimda shunday yozilgan: “Parvardigorimiz muqarrar qildilarkim, ota-onani qadrlanglar, yaxshilik qilinglar. Tirik ekansan, ularning ikkoviga ham ozor berma, yomonlik qilma, qattiq so‘zlama. Ularni izzat ikrom qil”.

